



## SAID AHMAD HAJVIY ASARLARIDA SO‘ZLARNING YASALISHI

**Olimova Dilobar**

*Lingvistika (o‘zbek tili) 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada Said Ahmad hajviy asarlaridagi so‘zlarning yasaliş hodisalari, qaysi so‘z turkumlarda ko‘proq yasaliş hodisalarning kuzatilgani va adib asarlarida ishlatilgan so‘zlarning qay tarzda shakllanganligi, adib matn tarkibida so‘zlarni qo‘llayotgan vaqtda so‘zlar o‘zining qay jihatdan va qaysi xususiyatiga ko‘ra tabiatini ochib berganligi aks ettirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Affiksatsiya, kompozitsiya, abbrevatsiya, yasama so‘z, prefiks, konversiya, ixtisoslashgan leksema, soddalashgan leksema, tublashgan leksema.

**Аннотация:** В статье рассматривается словообразование в комических произведениях Саида Ахмада, в каких словесных группах больше всего наблюдается образование слов, а также как образуются слова, используемые в литературных произведениях, когда писатель использует слова в тексте, в самих словах отражается то, каким образом и по каким признакам оно раскрыло свою природу.

**Ключевые слова** Аффиксация состав, абберация, искусственное слово, префикс, конверсия, специализированная лексема, упрощенная лексема, укорененная лексема.

**Abstract:** In the article, the formation of words in Saeed Ahmad's comic works, in which word groups the formation of words is observed the most, and how the words used in literary works are formed, when the writer uses words in the text, the words themselves It is reflected in what way and according to what characteristics it revealed its nature.

**Key words:** Affixation, composition, abbreviation, artificial word, prefix, conversion, specialized lexeme, simplified lexeme, root lexeme.

O‘zbek tilida so‘z yasaliş hodisasi barcha mustaqil so‘z turkumlari uchun xarakterli belgi emas. Tilimizda ot, sifat, fe‘l, ravish so‘z turkumlari yasaliş xususiyatiga ega. Bugungi kunda so‘z yasalişining affiksatsiya, kompozitsiya va abbrevatsiya kabi usullari mavjud bo‘lib, bulardan affiksatsiya va kompozitsiya usullari faol hisoblanadi. Abbrevatsiya usuli esa nafaoldir. O‘zbek tilshunosligining yetuk olimi Ra‘no Sayfullayeva ta‘kidlaganidek, avvalo, yasama so‘z va yasalgan so‘zni farqlash lozim. Yasama so‘z sof nutqiy hodisa bo‘lib, uning ma‘naviy imkoniyatlari so‘z yasash qolipining qobiliyati bilan belgilanadi va nutqda, matndagina muayyanlashadi. Chunonchi, uchuvchi yasama so‘zi qush, qurilma, mashina kabi so‘zlarning har biri bilan birikkanda o‘ziga xos ma‘no kasb etadi.

Yasalgan so‘z esa ma‘naviy ixtisoslashgan, leksemanishning birinchi bosqichida yuz tutgan va til jamiyati a‘zolari xotirasida “qotib qolgan”, shu shaklga bog‘langan ma‘noga ega bo‘ladi. Chunonchi, suvchi – mirob, qishloq xo‘jaligida sug‘orish ishlari bilan band mutaxassis shaxs<sup>1</sup>. So‘z yasaliş hodisasi har bir tilning lug‘at boyligini oshishiga, matnlarda va nutqda takroriylikning oldini olishga nutqni

<sup>1</sup> Ra‘no Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. – B.138



ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. So'z yasash ma'lum bir lug'aviy birlikdan so'z yasovchi vosita yordamida yangi so'z hosil qilish tushuniladi.

O'zbek tilimizda so'z yasashning affiksatsiya va kompozitsiya usullari yetakchilik qiladi. Affiksatsiya - tilimizda grammatik ma'no ifodalashning eng keng tarqalgan turi bo'lib, u orqali deyarli aksariyat grammatik ma'nolar ifodalanadi. Ifodalaydigan grammatik ma'noning xarakteriga va o'z mohiyatlariga ko'ra affikslar ikkiga bo'linadi: so'z yasovchi affikslar va shakl yasovchi affikslar. So'z yasovchi affikslar so'zga qo'shib, yangi lug'aviy ma'no hosil qiladi va so'zning grammatik tabiatiga ham ta'sir etadi. Masalan, ish so'ziga qo'shilgan *-la* so'z yasovchi qo'shimchasi yangicha lug'aviy ma'no vujudga keltirish bilan birga, yangi grammatik ma'no ham hosil qiladi<sup>2</sup>.

O'zbek tilida faqat fe'l asosga fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shish usuli bilan yasalmaydi. So'z yasashda affiksatsiya va kompozitsiya usullari eng sermahsul usullardan biri hisoblanadi. Bu haqida Sh. Shoabdurahmonov shunday fikr bildirganlar: "So'z yasash ot, sifat, fe'l va ravish turkumlari uchun xarakterlidir"<sup>3</sup>.

Biz o'rganayotgan matn Said Ahmad asarlarida so'z yasashning affiksatsiya usuli bilan yasalgan har bir so'z turkumiga oid talaygina so'zlarni ko'rishimiz mumkin. Otlarda so'z yasashning sermahsul affikslaridan biri – *chi*, *-uvchi*(*vchi*) qo'shimchasidir. Bu affikslar, asosan, shaxs oti yasaydi.

M u h b i r. Qadrli radio *tinglovchilar*, "Yulduz" firmasining ilg'or *tikuvchisi* Lutfixon Boboyevaga bag'ishlangan *eshittirishimizni* boshlaymiz. ("Kelinlar qo'zg'oloni").

M a' m u r. Ashula aytganni qamash kerak, degan qonun yo'q. Ashula aytganni qamasha, bittayam *ashulachi* qolmas edi.

Pensioner, seleksioner kabi so'zlar ot so'z yasovchi orqali shaxs oti hosil qilingan, rus tilida bu so'zlar yasama so'z bo'lib, pensiya asos + ner shaxs yasovchi qo'shimcha yordamida yasalgan.

Shu bilan birga faqat Said Ahmad leksikasidagina kuzatishimiz mumkin bo'lgan sutkor, sigirkor kabi shaxs otlari mavjud.

B a h r i. Qishda soy bo'yiga borsangiz, *shir* yalangoch bolib, muzni teshib, cho'milayotganini ko'rasiz. ("Kuyov").

(Shir) so'zi sifat darajasi bo'lib, hozirgi kunda yap-yalong'och, qip yalangoch, qipir yalong'och kabi variantlari mavjud.

<sup>2</sup> B.Mengliyev, R. Sayfullayeva, G. Boqiyeva va boshqalar. Hozirgi O'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009. – B.158

<sup>3</sup> SHOabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'qituvchi, 1980. – B.161-162



Sifatlarda soʻz yasash holati, asosan, takrorlash va affiksatsiya usuli bilan hosil qilingan.

**Q u d r a t.** Hammomdan *qip-qizil* boʻlib, bugʻlanib chiqayotgan xotinlarni koʻrib, sal boʻlsa ham xumorlari bosiladi. (“Kuyov”).

**F a r m o n.** Bunga hech narsa kerakmas. Kelinlik sarpolar *yap-yangi* turipti. (“Kelinlar qoʻzgʻoloni”).

**Gʻ a n i.** Oʻzimga ayb. Kenjatoyim deb koʻp erkalatdim. Ona qizim, deb erkalatdim, *oppoq* qizim deb erkalatdim. Nima desang, olib berdim. *Loʻmbozdek* boʻlib qolganingda ham *toyloqdek* qilib, opichib yurdim. (“Kuyov”).

Oppoq soʻzi takrorlash yoʻli bilan yasalgan boʻlsa, toyloqdek va loʻmbozdek leksemalari affiksatsiya usulida yasaladi.

Sifatlar yasashida affikslarning prefiks (lotincha – old tomonga mahkamlab qoʻyilgan.) shaklida ham yangi soʻzlar yasalganini koʻrishimiz mumkin. Masalan, beminnat, bevafo.

**Z u m r a d.** Zoʻrlikka zoʻrku-ya, ammo sal *befarosatroq-da*.

Bu usul bilan feʼl boʻlmagan soʻzlarga maxsus feʼl yasovchi qoʻshimchalar qoʻshib feʼllar yasaladi. Feʼl yasovchi affikslar koʻp boʻlmasa-da, ular yordamida yasalgan feʼllar anchaginani tashkil etadi. Misol uchun adib hajviyalarida quyidagi yasama feʼllarni uchratamiz.

**Q u d r a t.** Ho, Erkin, Erkin-ov! Suratni keyin *ishlarsan* buyoqqa chiq! (“Kuyov”).

**A s q a r.** sen bilan qanaqa *gaplashsa* boʻladi, uka? Qanaqa? (“Kelinlar qoʻzgʻoloni”).

Affiksatsiya usuliga koʻra, ot, sifat, son, olmosh, feʼlning harakatnomi va sifat-dosh shakllariga maxsus qoʻshimchalar qoʻshish orqali hosil qilinadi.

**M u h a y y o.** Ovsiningiz *xiylacha* bor. Ayamga osonlikcha jilovini tutqazib qoʻymaydi. (“Kelinlar qoʻzgʻoloni”).

**R a h i m a.** otamdan men hech qachon *tirnoqcha* yomonlik koʻrmaganman. Oʻz qizlaridek koʻradilar (“Kuyov”).

Son turkumida esa affiksatsiya usuli bilan ham, kompozitsiya usuli bilan ham miqdor bildiruvchi yangi soʻz yasalmaydi. Sonlarga qoʻshiluvchi- chi –(i)nchi (uchinchi, ikkinchi, beshinchi), -ta (ikkita, uchta, beshta) kabi affikslar yangi miqdor bildiruvchi son hosil qilmaydi, balki son (miqdor) tushunchasini oʻzgartmagan holda, unga tartib, dona kabi maʼnolar qoʻshadi xolos”<sup>4</sup>

<sup>4</sup> Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – T: Oʻqituvchi, 1980. – B.161-162



N i g o r a. Parvo qilmanglar, bunaqa kampirlarning yigirmatasini choynak – piyolaga o‘xshatib, tokchaga terib qo‘yaman, deganman. (“Kelinlar qo‘zg‘oloni”).

Tadqiq etayotganimiz yozuvchi asarlarida ham affiksatsiya usulida hosil qilingan so‘zlar talaygina.

II jahon urushi yillarida erlari o‘rniga dalaga chiqib ketmon chopgan, paxta tergan, *fidokor*, *vafodor*, ajoyib farzandlar o‘stirgan qahramon, paxta dalasida *fidokorona* mehnat qilib, paxtadan eng yuqori hosil olgan tabarruk *paxtakor*, har quti urug‘dan 125 kilo pilla olgan *pillakor*, har bir sigirdan yiliga uch tonnadan sut sog‘ib olgan ko‘p sut soqkanlarni nima derdi? *Sutkor* dermidi. *Sigirkor* dermidi? (“Kuyov”). *Kor* – affiksi orqali yasalgan *paxtakor*, *pillakor*, *sutkor*, *sigirkor* kabi so‘zlarda paxta, pilla, sigir, sut narsa otlariga kor qo‘shilib, shaxs oti hosil qilingan.

Nutqiy yasama so‘zning lisoniy sathga ko‘tarilishi bir necha bosqichda kechadi. Uni nutqdan lisonga siljishi, lisoniylashishi darajasiga ko‘ra quyidagicha tartiblash mumkin:

- 1) ixtisoslashgan leksema;
- 2) soddalashgan leksema;
- 3) tublashgan leksema<sup>5</sup>.

Ma‘mur. Ashula aytganni qamash kerak degan qonun yo‘q. Ashula aytganni qamasa, bittayam *ashulachi* qolmas edi (“Kelinlar qo‘zg‘oloni”).

Ixtisoslashgan leksemalarga *ashulachi* so‘zini misol tariqasida olsak,

1. Ashulachi - xonanda, hofiz, ashula ijro etuvchi yetuk san‘atkor degan ma‘noni anglatadi.
2. Ashulachi - xonanda va hofizlarning qo‘shiqlarini xirgoyi qiladigan odam.

Birinchi gapda ashulachi, san‘atkor leksemasi kasbni anglatib, ixtisoslashgan ma‘noga ega bo‘lsa. Ikkinchi gapda esa ashulachi leksemasi kuylash harakatini bajaruvchi shaxsni anglatadi. San‘atkor ma‘nosidagi ashulachi qolip jihatidan shaklan yaqin bolsa ham, ma‘nosiga ko‘ra qolipdan uzilgan ixtisoslashgan leksemdir. Ikkinchi leksema esa ham shaklan ham ma‘noviy jihatdan qolipga mos kelganligi uchun, nutqiy yasama so‘z hisoblanadi.

Soddalashgan leksema - o‘zak va qo‘shimchaning birikib, ajralmas holga kelishi.

A s q a r. Yo‘q, bu artist emas, bu - artistlarga isnod keltirib yurgan *otarchi* (“Kelinlar qo‘zg‘oloni”).

*Otarchi* so‘zi bir qarashda yasalmagandek ko‘rinsa-da, aslida tublashgan yasama leksema hisoblanadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “otarchi” – so‘zlashuv

<sup>5</sup> Mengliyev B. Hozirgi O‘zbek tili. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2018. – B.128



tiliga mansub soʻz sifatida qayd etilib: “Toʻy va bazmlarda oson pul topishga oʻrgangan muzikachi, ashulachi, raqqosa”, –deb izohlangan<sup>6</sup>. Bu soʻz *chi* soʻz yasovchi affiksi yordamida yasalgan. Qadimgi turkiyda “oʻt-“ (ot-) feʻli “sayramoq, kuylamoq, un chiqarmoq” kabi maʼnolarni anglatgan.

“Devon u lugʻotit-turk”da shunday misralarni koʻrishimiz mumkin: “*tatligʻI otar sunduvach*” – maʼnosi: “*Sanduvoch (bulbul) totli kuylaydi (sayraydi)*”<sup>7</sup>. Ushbu misradagi “*oʻtar*” soʻzi “*sayrar, kuylar*” kabi maʼnolarni anglatgan.

Tublashgan leksemalar shunday yasama soʻzki, ularni etimologik jihatdan oʻrganmay turib tarkibiy qismlarga ajratib boʻlmaydi.

*Q u d r a t. Roʻyxatga kiritilgan xotinlarni shu kunga chaqiraylik. Sovchi boʻlib, tugun – tersak koʻtarib yurgandan koʻra, shu yerda, uyimizda ularni gapga solib koʻrib, boʻladiganini koʻndiraylik.*

Sovchi kuyov tomondan qiz tomonning roziligini olish uchun vakil qilingan shaxs. Mulla Abdurahmon xotinlar soʻziga ishonmay Solih maxdumning oʻz oldiga mahalladan bir-ikkita keksani s o v c h i hilib yubordi (Abdulla Qodiriy). Qadimgi turkiy tilda qam shunday maʼnoni anglatgan bu soʻz “xabar”, “nutq” maʼnosini anglatgan sav otidan (Devon, III, 168; DS, 491) –chī qoʻshimchasi bilan yasalgan (Devon, III, 445); oʻzbek tilida a unlisi â unlisiga almashgan, i unlisining qattqlik belgisi yoʻqolgan: sav + chī = savchī > sâvchi<sup>8</sup>.

Birdan ortiq mustaqil maʼnoli oʻzak va morfemalarning tobelashgan holda qoʻshiluvi, birikuvi orqali yangi soʻz hosil qilinishi kompozitsiya usuli deyiladi. Masalan, Nazmi. *Limonxonaga* kirmasangiz ham mevasini yesangiz boʻladida. (“Kuyov”).

Turnalar uchsa qaraylik,  
Margʻilonning yoʻliga.  
Hidi kelsa **mast boʻlaylik**  
Handalakning boʻyiga.  
Handalak boʻylikkinam  
Sen unda zor, men bunda zor.  
**Toʻtiqushning** bolasidek  
Ikkalamiz intizor.  
Intizorlik torta-torta  
Tanda **toqat qolmadi**.  
Yoʻl chivindek sargʻayib

<sup>6</sup> O TIL. 1 t: m, 1981. – B.548.

<sup>7</sup> DLT. – T.; Fan, 1 t, 1960. –B.481

<sup>8</sup> SH.Rahmatullayev. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati. 2 jild. Toshkent: Universitet, 2003. – B.293



### Ucharga *holat qolmadi*.

Bundan tashqari o'rganayotgan obyektimizda *ko'zoynak, atirsovun, kuyovnavkar, chorbog', olib chiqmoq, qochib ketmoq, to'tiqush, qaror qilmoq, tovuqboqar* kabi turli so'z turkumlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan so'zlarni ko'rishimiz mumkin.

Konversiya usuli: (lotincha *conversio* – aylanish) so'z yasashning semantik-grammatik usulining alohida ko'rinishini tashkil qiladi. Bunda bir turkumdagi so'z ikkinchi bir turkumga o'tadi. Uning leksik va grammatik ma'nosi o'zgaradi.

Bunga misol qilib:

O' r i n b o y. *To'xtavoy*, hoy *To'xtavoy*. Turmaysanmi uka. Hovli qiyomat bo'lib ketdi-ku. ("Kelinlar qo'zg'oloni").

Q u d r a t. Bo'ldi-ey, onangni o'lganiga o'n bir yil bo'ldi-yu, endi yig'laysanmi? O'lganda qayoqda eding, kurortda eding. Telegramma bersam ham kelmagansan. *Yigirmasiga* zo'rg'a yetib kelgansan. ("Kuyov").

Xulosa qilib aytganda, yozuvchining asarlari hajviya janrida yozilgan bo'lib, o'sha davrdagi ijtimoiy hayot, inson dunyoqarashi keng ochib berilgan. Yozuvchi asarlarida yoritilgan hayotiy vaziyatlar o'quvchida ma'lum darajada kulgiga sabab bo'ladi. Hajviyalarda so'z qo'llash mahorati, asar ichida berilgan maqollar, qahramonlarning nimalargadir o'xshatilishi bu nafaqat o'zbek balki, rus leksikasining ham boyligidan darak beradi. Matn muallifining hajviy asarlarida o'zlashma so'zlardan keng foydalangani ma'lum bo'ldi. Ayniqsa, muallif ruscha so'zlardan ataylab, zarur o'rinlarda foydalangani sezilib turibdi. O'z davrida insonlarni tiliga, diniga, e'tiqodiga bo'lgan munosabatini ro'y-rost ko'rsatish maqsadida, hatto, ayrim o'zlashma so'zlarning xalq tilidagi talaffuz shakllarini qo'llagan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ra'no Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. – B.138.
2. B.Mengliyev, R. Sayfullayeva, G. Boqiyeva va boshqalar. Hozirgi O'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009. – B.158.
3. Shoabdurahmonov Sh, Asqarova M, Hojiyev A, Rasulov I, Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'qituvchi, 1980. – B.161-162.
4. O'TIL. 1 t: m, 1981. – B.548.
5. Mengliyev B. Hozirgi O'zbek tili. cT.: Tafakkur bo'stoni, 2018. – B.128.
6. SH. Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 2 jild. Toshkent: Universitet, 2003. – B.293.
7. Yuldosheva, N., & Ergasheva, R. (2020). Research Of Terminology And Aviation Terminology. The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN–2689-100x) Published: August, 25, 312-317.



8. Yuldosheva, N. E. (2021). UZBEK LANGUAGE SYNTAX RESEARCH METHODOLOGY. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(06), 370-380.
9. ЮЛДОШЕВА, Н. СОДДА ГАП ҚОЛИПЛАРИ ВОҚЕЛАНИШИГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ АКЦЕНТУАТИВ ОМИЛЛАР. *О 'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI*, 2022, [1/3 ISSN 2181-7324.
10. Юлдошева, Н. Э., & Мавланова, Н. Т. (2023). СОДДА ГАП ҚОЛИПЛАРИ ВОҚЕЛАНИШИГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ПРОСОДИК ВОСИТАЛАР. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(2), 556-564.

